

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQCHILIK IJODI TASNIFI **(Diniy aytimlar)**

Panjiev Qurboniyo Berdievich – Xalqaro Nordik universiteti “Musiqata’limi” kafedasi mudiri, pedagoigka fanlari doktori (DSc), professor v.b., etnomusiqashunos

O‘zbek xalq musiqasi ijodining yana bir o‘ziga xos jihatlari albatta, o‘z diniga e’tiqoti tufayli yaratilgan diniy aytimlardir. Musiqashunos olimlar tomonidan diniy navolar¹ deb e’tirof deb ham yuritiladi. Ushbu aytimlar Respublikaning barcha xududlarida birdek uchraydi va uni aholi bajonidil ijro etadilar. To‘g‘ri keyingi davrlarda ushbu aytim bolalar tomonidan kuylanmoqda. Namangan viloyati o‘zbek xalq qo‘shiqchilik ijodiyotida ko‘p uchraydigan mavsumiy qo‘shiqlardan yana biri “Ramazon” atimlaridir. Ushbu aytim matni quyidagicha:

Ramazon, yo-ramazon! yo-ramazon!
Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga.
Yo-ramazon, yo-ramazon, yo-ramazon!
Tomingizni ketida oy ko‘rdik,
Hammadan sizni boy ko‘rdik.
Yo-ramazon, yo-ramazon, yo-ramazon!

Xatak qishlog‘ida ham yuqoridagi marosim va an‘analarda badashlar ijro etilgan. Misol uchun, yoz faslida o‘tkaziladigan marosimlarda “Araz badash” chalinadi. “Angom” xuddi shunday marosimlar jumlasiga kirib, yozda quyosh tik turib zulga chiqqanda, eng uzoq kun va qisqa tun hamda harorat yuqori darajada ko‘tarilib, suvga ehtiyoj ko‘payganda - quyoshga bag‘ishlab o‘tkazilgan. “Araz badash” mana shu “Angom” marosimida ijro etilgan. Bunda ham dappchilar ikki guruhga bo‘linib, qarama-qarshi tomondan chiqib kelishgan. Yonma-yon bo‘lganda bir-birlarining dapplariga dapplarini qattiq urib, go‘yoki quyosh o‘z jazirasini ayab sochib - muruvvat ko‘rsatishini istab, o‘z dapplari bilan yuzlarini pana qilib, yashirib o‘tganlar (bu bilan ular quyoshdan noroziligini, u haddan tashqari qizdirib ekinlarga zarar yetkazayotganligini ifoda etganlar). “Araz badash” ham ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi kirish, ya’ni muqaddima hisoblanadi. Kirish qismi 5/8 o‘lchovda ikki takt ijro etilgandan so‘ng quyoshning asosiy qismiga o‘tiladi. U esa 6/8 o‘lchovda davom ettiriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibrohimov O.A. “O‘zbek xalq musiqasi ijodi” (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62
2. Ibrohimov O.A. “Maqpm va makon” Movaraunnahr, Toshkent 1996-yil.
3. Karamatov F.M O‘zbek xalq musiqasi merosi. XX-asr. Terma, yalla, qarsak, kirish maqolasi. Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1985. B.-2-23.

¹ Иброхимов О. Ўзбек халқ муסיа ижоди. Тошкент. 1994. 40 б.

4.Panjiyev Q.B. Salimova D. Vokal musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillari va uslublari. Metodik qo'llanma. – Toshkent.2018y. B.86.

5.Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. B. 210.